PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR FORMING CORE COMPETENCIES IN FUTURE PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Xolto‘rayeva Sabina Xo‘shmurod qizi

Nizomiy momidagi Toshkent davlat pedagogika universitet Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasii o‘qituvchisi

Kholtorayeva Sabina Khoshmurod kizi

teacher of the Department of Preschool Education Methodology of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha 6–7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik ahamiyati tadqiq etilgan. Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim o‘rtasidagi uzviylikni ta'minlash, "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda bolalarda kommunikativ, ijtimoiy, bilish va shaxsiy kompetensiyalarni izchil rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tayyorlov guruhi bolalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish orqali ularning maktab muhitiga moslashuvini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim, maktabga tayyorgarlik, tayanch kompetensiyalar, ta'lim uzviyligi, shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim, rivojlanish markazlari, hamkorlikdagi faoliyat, pedagogik shart-sharoitlar.

Abstract: This abstract examines the socio-pedagogical and psychological significance of developing core competencies in preschool children aged 6–7. It analyzes the issues of ensuring continuity between preschool and primary education, establishing developmental centers based on the "Ilk Qadam" state curriculum, and consistently developing communicative, social, cognitive, and personal competencies in children. Furthermore, the paper discusses the pedagogical conditions that facilitate adaptation to the school environment by organizing collaborative activities between preparatory group children and primary school students.

Keywords: preschool education, school readiness, core competencies, educational continuity, learner-centered education, developmental centers, collaborative activity, pedagogical conditions.

Maktabgacha yosh – bu bolalikning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, unda shaxsning asosiy sifatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va faoliyatga bo‘lgan munosabati shakllana boshlaydi. Ushbu davrda bola turli faoliyat turlarida ishtirok etish, atrof-muhitni idrok etish,

o‘z-o‘zini anglash va boshqalar bilan munosabat o‘rnatish orqali o‘zining tayanch kompetensiyalarini asta-sekin shakllantiradi. Tayanch kompetensiyalar bolaning kelajakdagi o‘quv faoliyatida, ijtimoiy hayotga moslashuvida va shaxs sifatida kamol topishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining mazmunini aniqlab olish hamda unga tizimli va ilmiy yondashuv asosida metodik asos yaratish zamonaviy ta’lim sohasidagi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sanaladi.

Tayanch kompetensiyalar quyidagi yo‘nalishlarda shakllanadi:

Kommunikativ kompetensiya: bolaning og‘zaki va noverbal nutq orqali muloqotga kirisha olishi, o‘z fikrini ifoda etishi, tinglash va dialogda qatnashish malakalari [1, 17-b.]. Ijtimoiy kompetensiya: do‘stona munosabatlar o‘rnatish, guruh faoliyatida ishtirok etish, boshqalarga yordam berish, empatiya va hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishi [3]. Bilish kompetensiyasi: bolalarning atrof-muhit to‘g‘risidagi bilimlarni egallashi, kuzatish, solishtirish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatlari. Shaxsiy kompetensiya, (“Men ”o‘z-o‘zini anglash): bola o‘zining shaxs sifatidagi qadrini anglaydi, mustaqil qaror qabul qiladi, ichki motivlari asosida faoliyat yuritadi [1, 18-b.].

Mazkur kompetensiyalar faoliyat davomida shakllanadi va bola o‘z hayotiy tajribasida ularni amalda qo‘llash orqali chuqurlashtirib boradi. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida tarbiyachining shaxsga yo‘naltirilgan individual yondashuvi, bolaning mavjud ijtimoiy tajribasi, oilaviy muhitdagi tarbiyaviy ta’sir hamda o‘quv-tarbiyaviy vositalarning tizimli va maqsadli qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi [4, 132–134-b.]

Shu asosda, maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik shart-sharoitlarni yaratishi — bu bolaning turli faoliyat turlarida rivojlanadigan bilimlar, ijtimoiy-axloqiy ko‘nikmalar va shaxsiy fazilatlarning uyg‘unlashgan tizimidan iborat bo‘lib, ularning maktab ta’limiga puxta tayyorlanishida asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy omillaridan biri rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishdir. O‘zbekiston respublikasining “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat o‘quv dasturida “Rivojlantiruvchi muhit mazmuni ta’lim tashkilotining sharoit va imkoniyatlaridan kelib chiqib, kamida beshta rivojlanish markazini tashkil etishni ta’minlashi zarur” [2] ligi keltirib o‘tilgan. Turli guruhlarda markazlar to‘plami har xil bo‘lishi mumkin, ammo davlat o‘quv dasturi guruhdagi beshta asosiy rivojlanish markazlarini tavsiya qiladi: fan va tabiat; til va nutq; syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish; san’at; qurish, konstruksiyalash va matematika.[2]

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish kompetensiyasini samarali shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilishi lozim:

Shaxsga yo‘naltirilgan va ko‘p qirrali (divergent) fikrlashga yo‘naltirilgan emotsional-axloqiy rivojlantiruvchi ta’lim muhitini loyihalash;
Meta-analiz metodi, ijodiy-izlanishli o‘yinlar va muammoli topshiriqlar orqali birgalikda mustaqil qarorlar qabul qilish mas’uliyatini o‘rgatish;
Variativ ta’lim ssenariylari, muammoli loyihalar, kuzatish va konstruktorlik faoliyatlari orqali bilimlarning konvergent uyg‘unligini mustahkamlash;
Izlanishga undovchi evristik muloqot, interaktiv mikrotreninglar, savollar va refleksiv muhokamalarni jarayonli qo‘llash;
To‘rtta integral mezon (nutq, kognitiv, ijtimoiy, shaxsiy) asosida bolaning bilishga bo‘lgan qiziqishini doimiy rag‘batlantirish va formativ baholab borish.
Bu yondashuvlar bolaning bilish kompetensiyalarini shakllantirish orqali uni maktab ta’limiga puxta tayyorlashda ilmiy asoslangan va samarali vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarni maktab muhitiga moslashtirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan faoliyat turlari muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon bolalarda maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, shuningdek, ijtimoiylashuv, emotsional moslashuv va bilish motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyidagi faoliyat shakllari ayni maqsadga yo‘naltirilgan holda samarali natijalar beradi:
Birgalikdagi faoliyatlar tashkil etish. Masalan, “Rasmga qarab so‘zlab berish” mavzusidagi dars-faoliyatini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari ishtirokida o‘tkazish orqali muloqot, tinglash, tushunish va ifoda qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, sport zalida yoki sport maydonchasida jismoniy faoliyatlarni birga bajarish orqali jamoaviylik, harakat madaniyati va sog‘lom turmush tarzi elementlari mustahkamlanadi.
Ijodiy ko‘rgazmalar tashkil etish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari tomonidan tayyorlangan rasmlar va boshqa ijodiy ishlarni birgalikda ko‘rgazmaga qo‘yish, bolalarda estetik did, faxr va birgalikda ijod qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish asosiy yo‘nalishlari — bu bolaning aqliy, ijtimoiy, kommunikativ va shaxsiy rivojlanishini uzviy uyg‘unlikda ta’minlashga yo‘naltirilgan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Kompetensiyaviy yondashuv bolani faqat bilim va ko‘nikmalarga emas, balki mustaqil fikrlash, muomala qilish, ijtimoiy muhitga moslashish, muammolarni hal etish qobiliyatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllantirishni ko‘zda tutadi.
Bu jarayonda pedagogik metodlar, o‘yin asosidagi ta’lim, didaktik materiallar, bolaga yo‘naltirilgan yondashuv, qulay psixologik muhit va uzviy ta’limiy izchillik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tayanch kompetensiyalar mazmunining aniq belgilanishi va ularning bosqichma-bosqich shakllantirilishi bolani maktab hayotiga puxta tayyorlash, shuningdek, ta’lim jarayonining keyingi bosqichlariga uzluksiz va izchil o‘tishini ta’minlashga xizmat

qiladi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, nafaqat pedagogik faoliyatning ajralmas va muhim tarkibiy qismi, balki jamiyatda intellektual salohiyatga ega, ijtimoiy jihatdan faol va barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy zarur shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. – B. 16–18
2. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022. – B. 13–18 ; – 16 b. ; – B. 16–17; – B.
3. Toshtemirova S.A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi // QDPI Ilmiy jurnali. – 2022. – B. 71–73.
4. Jalolov J.J. Pedagogika: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b. – (132–134-betlar).